**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI URGANCH FILIALI**

**HIMOYAGA RUXSAT ETILDI**
Axborot texnologiyalari kafedrasi mudiri
____________ Reyimberganov A.
(imzo)
“____” __________________ 2015 y.

**OMANOV MAXMUDJON MAQSUDBEKOVICH**

# MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIGA MUROJAATLARNI ONLINE QABUL QILISH TIZIMINI YARATISH

mavzusidagi

5330200 – “Informatika va AT” ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalvr akademik darajasini olish uchun yozilgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Bitiruvchi __________ Omanov M.
(imzo)

Rahbar_____________ Djumanazarov O.
(imzo)

Maslahatchi__________ Allaberganova D.
(imzo)

Taqrizchi __________ Baltayev J.
(imzo)

**Urganch – 2015 y.**

**Mundarija**

**Kirish**

**I BOB. TIZIMLI TAXLIL VA MASALANI QO'YILISHI.**

1.1 Maktabgacha ta'lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va uning afzalligi………………………………………………..

1.2 Maktabgacha ta'lim muassasalarida mavjud axborot tizimlari tahlili

1.3 Masalani qo'yilishi……………………………………………………

**II BOB. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI UCHUN TIZIM YARATISH.**

2.1. Web texnologiya asoslangan dasturlash………………………………..

2.2. Maktabgacha ta'lim muassasalarda online muloqat veb saytini ma'lumotlar bazasini loyihalash………………………………………………………

2.3 Maktabgacha ta'lim muassasalariga murojatlarni online qabul qilish tizimini yaratish……………………………………………………………….

**III BOB. MEHNAT MUHOFAZASI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI.**

3.1 Kompyuter sinfiga qo'yilgan ergonomik talablar……………………...

3.2 Kompyuter bilan ishlashda tehnika xavfsizligi………………………

**Xulosa……………………………………………………………………..**

**Foydalanilgan adabiyotlar…………………………………………………**

**Ilova**

# Kirish

Hozirgi axborot texnologiyalari tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan zamonamizda kompyuter tarmoqlari kundan-kunga jadallik bilan hayotimizga kirib kelmoqda, demakki bu zamon talabi bizning asosiy maqsadlarimiz ushbu zamonaviy texnologiyalarning xayotga tadbiq etish qolaversa ularni tub ma’noda xayotimiz mazmuniga aylantirishimiz lozim. O’zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo’yicha bir qator qonunlar huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risidagi 2002 yil 6 iyundagi 200-son qaroriga muvofiq 2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan. Hozirgi paytda O’zbekistonda web dasturlash sohasiga bo’lgan talab o’sib bormoqda. Har bir korxona, tashkilot, o’quv muassasalari, taniqli shaxslar o’z shaxsiy web saytlariga ega bo’lmoqdalar. Web dasturchilar bunday saytlarni yaratishda web dasturlash tillariga murojaat qilmoqdalar. Ushbu bitiruv malakaviy ishi ham xuddi shu kabi masalalarni yechishga qaratilgan bo’lib, unda maktabgacha ta’lim muassasalarida onlayn muloqat tizimini yaratish g’oyasi ilgari surilgan.

Maktabgacha talim tizimi xozirgi kunda eng muhim tizimlardan hisoblanadi. Prezidentimiz alohida ta’kidlaganidek: “Agar bolalar erkin fikrlashga o‘rgansalar berilgan ta’lim samarasi sifatli bo‘lishi muqarrar. Buning uchun tarbiyachilarning bosh vazifasi: maktabgacha yoshdagi bolalarni Davlat talablari, Nizom, “Bolajon” dasturi asosida rejalashtirilgan dastur asosida ta’lim-tarbiya berishdir”. Ta’lim-tarbiyaning bugungi kundagi asosiy vazifasi – o‘sib kelayotgan bolalarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirgan hamda jamiyatda o‘z munosib o‘rnini egallashga qodir bolgan – komillikka intiladigan barkamol avoldni voyaga yetkazishdir.“O‘zbekiston Respublikai “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasida: “Bu ta’lim 6-7 yoshgacha oilada, bolalar bog‘chasida va mulk shaklidan qat’i nazar boshqa ta’lim muassasalarida olib boriladi” – deb ta’kidlangan. Darhaqiqat, ta’lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa,

uning samarasi shunchalik erta namoyon bo‘ladi va insonning butun hayot tarziga ijobiy ta’sir qiladi”. Maktabgacha ta’lim bola shaxsini sog‘lom va yetuk, shu bilan birga maktabga tayyorlagan holda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi. Maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayonini tarbiyachilar tomonidan to‘g‘ri tashkil etilishi, mas’ul shaxslar tomonidan uni nazorat qilishning afzalligini ta’minlash, maktabgacha yoshdagi bolalar ota-onalarining oilada bola tarbiyasi bilan shug‘ullanishi uchun qulaylik yaratish maqsadida “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Maktabgacha ta’lim konsepsiyasi” hamda “Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” asosida ishlab chiqildi. Dasturning maqsadi: “Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” ning bajarilishiga erishishdan, ya’ni maktabga jismonan sog‘lom, aqlan va ma’nan yetuk, jamiyatning turli a’zolari bilan muloqotda bo‘la oladigan, borliqni aniq idrok etadigan, hayotga ijtimoiy jihatdan moslashuvchi, umummilliy qadryatlarimizni, mustaqil va ongli yashaydigan bolani tayyorlashdan iborat. Yurtboshimiz ta’biri bilan aytganidek: “Mamlakatimizning istiqlol yo‘lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tuzilishini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari va ko‘nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda”. Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rivojlantirishning 2015-2020 yillarga mo‘ljallangan tegishli dastur loyihasini ishlab chiqish, bolalarni maktabga tayyorlash ishlarini qishloq joylarda izchil amalga oshirish belgilanayotgani muhimdir. Dastur asosida mamlakatimizdagi bolalarning o‘rta hisobda 45 foizini maktabgacha ta’lim muassasalariga qamrab olish kutilmoqda.Maktabgacha ta`lim uzluksiz ta`limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog’lom va rivojlangan shaxs bo’lib shakllanishini ta`minlab, o’qishga bulgan ishtiyoqini uyg’otib, tizimli o’qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo’lgan maktabgacha ta`lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta`lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta`limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o’qishga tayorlash, bolani sog’lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo’lib shakllantirish,

qobiliyatlarini ochib berish, o’qishga, tizimli ta`limga bo’lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.Maktabgacha ta`lim muassasasida bolalarning hayoti va sog’lig’ini muhofaza qilish maktabgacha ta`lim muassasasi hamda shtatdagi tibbiyot xodimlari, shuningdek maktabgacha ta`lim muassasasiga biriktirilgan sog’liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.Maktabgacha ta`lim muassasasida bolalarning hayoti va sog’lig’ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi va qoidalari, maktabgacha ta`lim muassasasiga bolalarni olib kelish va olib ketish qoidalari, maktabgacha ta`lim muassasasi binolarida xavfsizlikni tashkil etishga oid talablar, maktabgacha ta`lim muassasasida yong’in xavfsizligini tashkil etishga oid talablar, hudud xavfsizligiga bo’lgan talablar “Maktabgacha ta`lim muassasalarida bolalarning hayoti va sog’lig’ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to’g’risida Nizom” bilan tartibga solinadi.

**Bitiruv ishining dolzarbligi:** Maktabgacha ta’lim muassasalarida axborot tizimini yaratish masalasini hal qilishi kerak bo’lgan ob’ektlar qatorida turadi. Undagi axborot almashish jarayoni o’zining tinimsizligi, ta’lim muassasiga bolalarni qabul qilish, ulardan olinadigan ma’lumotlar va o’zaro bog’lanishlarning ko’pligi bilan tavsiflanadi. Bunday ta’lim muassasini kompleks avtomatlashtirish, unda ilg’or texnika va texnologiyadan, EHM hamda avtomatlashtirish sistemalaridan foydalanish asosida mavjud bo’ladi. Shundagina bu massasada ishlovchi ishchilarni mehnati yangicha tashkil qilingan, mehnat madaniyati yuqori pog’onaga ko’tarilgan bo’lishi mumkin.

**Ishdan maqsad:** Bitiruv malakaviy ishining maqsadi, xozirgi kunda ko’plab sohalar kabi maktabgacha ta’lim muassasalarining ish faoliyatini avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini yaratishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi:** Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi quyidagilardan iborat, kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovadan iborat.

1 – bobda Axborot tizimlar hamda bu tizimlarning mahalla fuqarolar yigini muasasalari uchun muhim jihatlari ko’rib chiqilgan.

2 - bobda avtomatlashtirilgan tizimni tuzishda foydalanilgan tillar PHP, Java Script, MySQL va HTML tillari bilan tanishib chiqilgan. Avtomatlashitirilgan tizimining tuzilishi, tizimda ishlatilgan modullar va tizimdan foydalanish usullari ko’rib chiqilgan.

3 - bobda Kompyuter sinflarga qo’yilgan ergonomic talablar, kompyuter bilan ishlashda texnika xavfsizlik qoidalari bilan tanishib chiqildi.

# I. TIZIMLI TAXLIL VA MASALANI QO'YILISHI

## 1.1 Maktabgacha ta'lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va uning afzalligi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari – O'zbekiston Respublikasidagi ta`lim muassalarining turi bo'lib, turli yo'nalishdagi maktabgacha bo'lgan davrdagi umumta`lim dasturlarini amalga oshiradi. Maktabgacha ta`lim muassasalari 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta`minlaydi.




Maktabgacha ta`lim muassasasini tashkil etish tartibi, faoliyatini tashkil etish va butlash, hamda maktabgacha ta`lim muassasasining mol-mulki va pul mablag'lari, javobgarligi, boshqaruvi va ta`lim jarayoni qatnashchilari to'g'risidagi kerakli ma`lumotlarni "O'zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta`lim muassasasi to'g'risida Nizom" dan olishinigiz mumkin.

**O'zbekistonda maktabgacha ta`lim muassasalarining zamonaviy tizimi**

Maktabgacha ta`lim muassasalari, faoliyat yo'nalishiga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi:

- Bolalar yaslisi, bolalar yasli bog'chasi, bolalar bog'chasi, uydagi bolalar bog'chasi (mustaqil muassasa yoki filial sifatida).
- Maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta`lim mussasasi (bolalar bog'chasi-maktab).
- Tarbiyalanuvchilarni bir yoki bir nechta yo'nalishda (til, badiiy estetik, sport va boshqalar) tarbiyalovchi maktabgacha ta`lim muassasalari.

• Tarbiya jismoniy va ruxiy rivojlanishdagi og’ishlarni kvalifikatsion yaxshilovchi tiklovchi turdagi bolalar bog’chasi.

• Tibbiyot gigiena, profilaktika va sog’lomlashtirish, tadbir va proseduralarini amalga oshiruvchi zaiflashgan bolalarni nazorat qilish va sog’lomlashtirish bog’chasi.

• Birlashtirilgan turdagi bolalar bog’chasi (birlashtirilgan turdagi bolalar bog’chasiga rivojlantiruvchi, tiklovchi va sog’lomlashtiruvchi guruhlar umumlashtirilgan ko’rinishda kiradi).




Maktabgacha ta`lim muassasasining ish tartibi va u yerda bolalarning bo’lish davomiyligi davlatning maktabgacha ta`lim sifat va darajasiga bo’lgan talablari, nizom, maktabgacha ta`lim muassasasi va ota-onalar orasida tuzilgan shartnoma, hamda ta`sischilar tomonidan belgilanadi.

Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun maxsus maktabgacha ta`lim muassasalari tashkil qilingan bo’lib, u yerga bolalar davlatning joylardagi vakolatli ta`limni boshqarish va sog’liqni saqlash organlari tarafidan tashkil qilingan ruhiy-tibbiy pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan qabul qilinadi.

Maxsus maktabgacha ta`lim muassasasini tashkil etish tartibi, mol-mulki va pul mablag’lari, maxsus maktabgacha ta`lim muassasasida o’quv-ta`lim va sog’lomlashtirish jarayonini tashkil qilish, ta`lim jarayoni ishtirokchilari va maxsus maktabgacha ta`lim muassasasining boshqaruvi haqidagi to’liq ma`lumotlar “Maxsus davlat maktabgacha ta`lim muassasasi to’g’risidagi Nizom” da ko’rsatilgan.

**Maktabgacha ta`lim muassasalarining asosiy maqsadlari**

Maktabgacha ta`lim, olinish shakli va usullaridan qat`iy nazar, quyidagi maqsadlarni o’z oldiga qo’yadi:

• Bolalarni maktabda o’qishga maqsadli va tizimli tayyorlash;

• Bolalarning shaxsiy qobiliyatlari va iste`dodlarini rivojlantirish;

• Bolalarni milliy, umuminsoniy va madaniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolani intellektual rivojlantirish;

• Bolalarda yuqori ma`naviy va odob axloq asoslarini shakllantirish;

• Bolalarning jismoniy va ruhiy sog’ligini mustahkamlash.

Maktabgacha ta`lim maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy va xayri tashkilotlari, mahalla, xalqaro fondlar faol ishtirok tadilar.

O’zbekistonda maktabgacha ta`lim davlat tilida hamda qoraqalpoq, rus, tojik, qirg’iz, qozoq ingliz va turkman tillarida olib boriladi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida onlayn tizimimini qo’llanilishining asosiy vazifalaridan biri internet orqali yani web saytimiz orqali to’g’ridan to’g’ri muloqatni shakllantirishdan iboratdir. Bolalarning o‘sib-ulg‘ayishiga maktabgacha bo‘lgan davrni shular sirasiga kiritish mumkin. Bolalar ohangraboli olam hisoblanib, juda tez o‘sish, rivojlanish va o‘zgarishlar ichida yashaydilar. Bu farzand tarbiyasida aynan shu palla qanchalik ahamiyatli ekanini yana bir isbotidir.Web saytimizda maktabgacha ta’lim tizimi xamma bo’limlarini ko’rib chiqishimiz mimkun. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarining bajarilishiga erishishdan, ya’ni maktabga jismonan sog‘lom, aqlan va ma’nan yetuk, jamiyatning turli a’zolari bilan muloqotda bo‘la oladigan, borliqni aniq idrok etadigan, hayotga ijtimoiy jihatdan moslashuvchi, umummilliy qadryatlarimizni, mustaqil va ongli yashaydigan bolani tayyorlashdan iborat. Xozirgi kunda axborot texnologiya juda katta qamrov ostida tarqalgan xar bir sohani qaramaylik axborot texnologiya jalb qilinib kelinmoqda.Maktabgacha ta’lim muassasalarda axborot texnologiya ham muhim axamiyatga ega bo’lib bormoqda yosh tarbiyalanuvchilarni xozirgi kunda rivojlanib kelayotgan texnologiyalarni mukammal o’rganib borishdan iboratdir,va ota onalarning

muassasalar xaqida ma’lumot olish uchun xam internetdagi web saytlarimizdan foydalanishlari mumkun bo’ladi.Mavjud web saytlarimiz yani www.webbogcha.uz sayti orqali maktabgacha ta’lim muassasalar xaqida ma’lumot olish mumkun.Bu saytimizda butun respublikamiz hududidagi maktabgacha ta’lim muassasalari mavjud,va bolaning tarbiyasi uchun kerak bo’lga xar hil turdagi video roliklar xam berilgan.Prizidentimiz takidlaganidek “Bugungi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash an'ana tusiga kirib bormoqda. Jumladan, maktabgacha ta'lim muassasasalarida ham zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib mashg‘ulotlar tashkil etish orqali yosh avlodning jismoniy, aqliy va intellektual salohiyatini rivojlantirish eng asosiy vazifalardan hisoblanadi”.Maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalar qamrovini oshirish, tarbiyalanuvchilarning qiziqishi, intilishini kuchaytirish, dunyoqarashini shakllantirish borasida seminar ishtirokchilari tuman, shahar xalq ta'limi muassasalar faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo‘limlari maktabgacha ta'lim muassasalari metodistlariga innovatsion texnologiya elementlarini samarali qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar ham berilib borilmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablariga mosligini o‘rganadi va davlat talablarini bajarilishini ta'minlash bo‘yicha metodik yordam ko‘rsatadi;

-maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish chora-tadbirlarining amalga oshirilishini ta'minlaydi;

-muassasa rahbar va mutaxassislarining ilg‘or ish tajribalarini o‘rganadi, ularni ommalashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

-metodik qo‘llanmalarning yaratilishida mualliflarga metodik yordam ko‘rsatadi;

-pedagog xodimlarning metodik kengash, birlashma ishini tashkillashtiradi, turli tanlovlar, ko‘rgazmalar, musobaqalar o‘tkazish bo‘yicha kerakli hujjatlar ishlab chiqishni ta'minlaydi;

-pedagoglarni ta'lim-tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsion va boshqa texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha metodik tavsiya va qo‘llanmalar bilan ta'minlanishida metodik yordam beradi, ulardan foydalanishni ta'minlaydi;

Maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan yangiliklarni muassasalarga yetib borishini ta'minlaydi.muassasa pedagoglari va boshqa xodimlarining attestatsiyadan o‘tish jarayonida metodik yordam berishni ta'minlaydi; Shuningdek, hozirda bo‘lim veb-saytida Interaktiv xizmatlar bo‘limida respublikamizdagi barcha maktablar va MTMlar veb-saytlari to‘g‘risida ma’lumotlar olish mumkin.

## 1.2 Maktabgacha ta’lim muassasalarida mavjud axborot tizimlari tahlili

Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim muassasalari uchun www.webbogch.uzedu.uz veb sayti mavjud ushbu sayt bo'lib sayti orqali ham ma’lumot olish mumkun




Bu web sahifada respublikamiz hududidagi barcha maktabgacha talim muassasalari ma’lumotlari mavjud.

Masalan:



Bu Xorazm viloyatidagi maktabgacha ta'lim muassasalar haqida ma'lumot olish mumkun.Maktabgacha talim muassasalariga qabul qilish kerak bo'lgan ma'lumotlarni olish ham mumkun.

Masalan



Xorazm viloyati --> Yangibozor tumani

| № | Bog'cha nomeri | Mudira | O'quvchilar soni | Ma'lumot kiritilgan sana | Manzili | Indeks | Telefoni | Pasport |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | 1 | Masharipova Gulsara | 50 | 2009-04-14 13:47:56 | Yangibozor sh., E. Xudoyberganov - 2 | 221200 | 41-92-768 | Passport |
| 2. | 2 | Safarova Zevar | 140 | 2009-04-11 21:30:38 | Yagibozor shaharchasi, X. Karimov ko`chasi | 221200 | 41-92-692 | Passport |
| 3. | 3 | Sapaeva Muqaddas | 35 | 2009-04-14 13:50:53 | Yangibozor sh., 9 may ko`chasi | 221200 | 41-92-332 | Passport |
| 4. | 4 | Xollieva Qurbonoy | 50 | 2009-04-14 13:51:12 | Yangibozor sh., D. Matchon ko`chasi, 7 uy | 221200 | 41-92-781 | Passport |
| 5. | 5 | Sotimova Sveta | 34 | 2009-04-14 13:51:31 | Yangibozor sh., G`alaba poselkasi | 221200 | 41-92-493 | Passport |
| 6. | 6 | Yaxshimurodova Shodmon | 50 | 2009-04-14 13:51:56 | Qalandardo`rman qishlog`i | 221208 | 602-31-16 | Passport |
| 7. | 7 | Bo`ranova Gulora | 50 | 2009-04-14 13:55:52 | Qalandardo`rman qishlog`i | 221208 | 41-63-232 | Passport |
| 8. | 8 | O`rozmetova Shirin | 60 | 2009-04-14 13:52:17 | Cho`bolonchi qishlog`i | 221209 | 0 | Passport |
| 9. | 9 | Jumaniyozova Inobat | 33 | 2009-04-14 13:52:38 | Bo`zqal`a qishlog`i | 221203 | | Passport |
| 10. | 10 | Xo`janafasova Qurvonoy | 40 | 2009-04-14 13:48:44 | Bog`olon qishlog`i | 221206 | | Passport |
| 11. | 11 | Manglieva Jamila | 40 | 2009-04-14 13:53:07 | Boshqirshix qishlog`i | 221204 | | Passport |
| 12. | 12 | Xolmurotova Gulsara | 60 | 2009-04-14 13:53:30 | Boshqirshix qishlog`i | 221204 | 41-64-131 | Passport |
| 13. | 13 | O`razmetova Bikajon | 60 | 2009-04-14 13:56:12 | Bog`olon qishlog`i | 221202 | | Passport |
| 14. | 14 | Yuldasheva Malika | 35 | 2009-04-13 09:04:01 | Boshqirshix qishlog`i | 221204 | | Passport |
| 15. | 15 | Matsapaeva Sanobar | 55 | 2009-04-14 13:54:00 | Shirinqo`ng`irot qishlog`i | 221210 | | Passport |
| 16. | 17 | Jobborova Orzigul | 50 | 2009-04-13 09:06:16 | Uyg`ur qishlog`i | 221207 | | Passport |
| 17. | 18 | Abdullaeva Mehribon | 60 | 2009-04-13 09:08:26 | Cho`bolonchi qishlog`i | 221209 | 41-69-153 | Passport |
| 18. | 19 | Avazova Zulfiya | 40 | 2009-04-13 10:10:59 | Oyoqdo`rman qishlog`i | 221206 | | Passport |

Bu yerda passport bo'limiga kirasiz.



ПАСПОРТИ

I. Умумий маълумотлар

| МТМ раками | номи | мудира | устав | режим | филиал | тури | болалар сони | шундан кизлар | охирги тамир | курилган йили | жойлашганлиги | манзил | индекс | телефон | таълим тили | фаолияти |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 4 | Orom | Xollieva Qurbonoy | 2008-04-24 | 10,5 soat | Yo'q | Umumiy | 50 | 32 | 0000-00-00 | 1988 | Shahar | Yangibozor sh., D. Matchon ko`chasi, 7 uy | 221200 | 41-92-781 | O'zbek | Davlat |

II. МТМ хоналари

| Услубчи хонаси | Мусика зали | Лингофон хонаси | Гурух хоналари | Ухлаш хонаси | Ошхона | Кир ювиш хонаси | Хамшира хонаси | Изолятор хонаси | Изостудия хонаси | Музей | Маънавият хонаси | Тугарак хонаси | Тиш даволаш хонаси | Омборхона | Сабзавот омборхонаси | Фитобар | Физиотерапея хонаси |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 1 | | 4 | 4 | 3 | 2 | 2 | 1 | | Mavjud emas | Mavjud | 1 | | 2 | 1 | 1 | |

III. МТМ худуди

| Уралганлиги | Бириктирилган ер майдони (кв/м) | Богча ховлиси майдони (кв/м) | Мевали бог (кв/м) | Иссикхона (кв/м) | Бошка майдонлар (кв/м) |
|---|---|---|---|---|---|
| Temir panjara | 10000.00 | 400.00 | 100.00 | 0.00 | 9500.00 |

IV. МТМ моддий-техника базаси

| Курилган йили | Бино каватлилиги | Бино куввати | Жами хоналар сони | Жами гурух хоналари сони | Хужалик хоналари сони | Бино холати |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1988 | 2 | 90 | 50 | 4 | 5 | Qoniqarli |

| Тури | коникарли | эхтиеж | яроксиз | жами |
|---|---|---|---|---|
| Тушлик столи | 15 | | | 15 |
| Стуллар | 60 | | | 60 |
| Кийим жавони | 60 | | | 60 |
| Китоб жавони | 60 | | | 60 |
| | 60 | | | 60 |

Shu bo’limda bolaga tegishli ma’lumotlarni bilib olishinggiz mumkun.Web sahifamizda mehmon bo’limi ham bor bunda o’z muloxazanggizni qoldirishiz mumkun.




Xatni yozishga keladigan bo’lsak shu tarzda amalga oshiriladi




Maktabgacha ta’lim muassasalari haqidagi statistika bo’limida olish mumkun:




| № | Viloyatlar | Umumiy bog'chalar soni | Joriy yil holatiga | Foizi | Joriy yilgacha |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Jizzax viloyati | 189 | 0 | 0.00 | 122 |
| 2. | Toshkent shahri | 480 | 0 | 0.00 | 465 |
| 3. | Qoraqalpogiston Respublikasi | 392 | 0 | 0.00 | 311 |
| 4. | Andijon viloyati | 577 | 0 | 0.00 | 502 |
| 5. | Buxoro viloyati | 446 | 0 | 0.00 | 338 |
| 6. | Qashqadaryo viloyati | 391 | 0 | 0.00 | 81 |
| 7. | Navoiy viloyati | 158 | 0 | 0.00 | 65 |
| 8. | Namangan viloyati | 614 | 0 | 0.00 | 551 |
| 9. | Samarqand viloyati | 659 | 0 | 0.00 | 706 |
| 10. | Surxondaryo viloyati | 387 | 0 | 0.00 | 280 |
| 11. | Sirdaryo viloyati | 189 | 0 | 0.00 | 180 |
| 12. | Toshkent viloyati | 501 | 0 | 0.00 | 418 |
| 13. | Fargona viloyati | 837 | 0 | 0.00 | 745 |
| 14. | Xorazm viloyati | 355 | 0 | 0.00 | 141 |
| 15. | Xalq ta'limi vazirligi | 0 | 0 | | 0 |
| | **Jami** | **6175** | **0** | **0** | **4905** |

Bu yerda maktabgacha ta’lim muassasalarini topshirilgan vaqtdan joriy vaqtgacha bo’lgan ma’lumotlarni bilib olish mumkun.

Bu saytda respublikamiz xududidagi barcha maktabgacha ta’lim muassalar haqida o’z muloxazangizni qoldirishinggiz mumkun.

## 1.3 Masalaning qo`yilishi.

Maktabgacha ta`lim muassasasining ish tartibi va u yerda bolalarning bo'lish davomiyligi, davlatning maktabgacha ta`lim sifat va darajasiga bo'lgan talablari, nizom, maktabgacha ta`lim muassasasi va ota-onalar orasida murojatlarini hamda bolalarni bog'chaga qabul qilish jarayonida bir qator bosqichlardan iboratdir. Ushbu bitiruv malakaviy ishida shu muammoni yechimi sifatida maktabgacha ta`lim muassasasiga murojaat qiluvchi ota-onalarga xizmat ko`rsatishda qulaylik yaratishni o`z oldimizga maqsad qilib oldik va maktabgacha ta'lim muassasalariga murojaatlarni online qabul qilish tizimini yaratish masalasi qo`yildi.

**II BOB. Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun tizim yaratish.**

**2.1 Web texnologiya asoslangan dasturlash.**

web saxifa yaratishda PHP dasturlash tilidan foydalanish.

PHP tili asosan quyidagi afzalliklarga ega bo’ladi:

1. an’anaviylik
2. oddiylik
3. samaradorlik
4. xavfsizlik
5. moslashuvchanlik
6. an’anaviylik

PHP tarkibidagi til strukturasi C va Perl ga o’xshashlik xususiyati uning barcha versiyalarida saqlanib qolgan.

Oddiylik

PHP ning kodlarini boshqa belgilash tillariga oson joylashtirish imkoniyati mavjud.

Samaradorlik

PHPda server ish jarayonini klientlarga taqsimlash yuqori darajada qo’yilgan, bunda klient so’rovlari imkon boricha qondirilishi yo’lga qo’yilgan.

Xavfsizlik

PHP da xavfsizlik 2 ta sathga bo’lingan :

a) Tizimli xavfsizlik

b) Taqdimot xavfsizligi

Moslashuvchanlik

PHP da hosil qilingan stenariylar platformaga moslashuvchan bo’ladi. PHP ga tegishli bo’lgan barcha vositalar internetda to’g’ridan – to’g’ri tarqatiladi.

PHPning vazifasi serverni ma'lumotlar ombori bilan bog'lash (Apache+PHP+MySQL). PHPni o'rganishdan avval HTMLni bilishingiz kerak. PHP ishlashi uchun birinchi navbatda server dasturi o'rnatilgan bo'lishi kerak. Usiz PHP operatsiyalarini bajarib bo'lmaydi. Ular Apache, Denver. Apache'ni o'z kompyuteringizga o'rnatasiz.PHP operatsiyalari sizga ko'rinmaydi. Siz faqat uning

natijasini HTML-kod ko'rinishida olasiz. Dasturda xatolik yuz beradigan bo'lsa, qaysi qatordagiligini
ham server ko'rsatadi. PHP kodlarini oddiy bloknotga ham yozsa bo'ladi. Ammo PHP tahrirlovchilarini ishlatgan ma'qulroq.

O'zgaruvchilar

O'zgaruvchilar hamma dasturlash tilining asosidir. Bularga O'zgarmas sonlar, belgilar va boshqalar kiradi.

Nomlash

Ob’yektlarni, funksiyalarni, o'zgaruvchilarni nomlash uchun siz hamma belgilardan (lotincha) ishlatishingiz mumkin

Global o'zgaruvchi

Global, ya’ni umumiy o'zgaruvchanlar butun sahifamiz bo'yicha hamma joyda ishlatishingiz mumkindir. Static o'zgaruvchi

Static: Bu ichki o'zgaruvchi bo'lib, ammo funksiyaning ichidan chiqganingizdan keyin ham o'z qiymatini saqlab qoladi, va shu funksiyani keyingi bor ishlatganingizda o'z qiymati bilan ishlaydi.

Bir turdan ikkinchi turga o'tish

Agarda siz qandaydir son hoh butun son hoh qoldiqli bir turdan ikkinchisiga o'tkazish niyatingiz bo'lsa unda bu dars sizga yordam beradi. Keling avval qanday turlari borligini yozib so'ngra bir turdan ikkinchisiga o'tkazishni ko'rib chiqamiz.

O'zgarmaslar

Oldindan aniqlab berilgan son yoki sozlar tarkibidir.

Object Oriented Programming (OOP)

Bu programmalash, yangi programmalash turidir, ya’ni, agarda siz C++, Visual Basic, Delphi kabi programmalash tillarini o'rgangan bo'lsangiz bu siz uchun yangilik bo'lmaydi, agarda bilmasangiz unda shu mavzuni ko'rib chiqganingizdan so'ng sizda bu programmalash turi haqida ma'lumotingiz bo'ladi.

OOP - Bu programmangizda qandaydir bir ob’yekt yaratib undan keyingi o'zingizga kerak bo'lgan yerlarda ishlatishdir. Ya’ni bo'lmagan bir ob’yekt hosil

qilishdir.

Class

Class: bu OOPning asosidir. Ya’ni siz klas yaratasiz va undan keyinchalik foydalanishingiz mumkindir.

Ushbu bo’lim PHP va MySQL MBBT o’rtasidagi hamkorlik usullari bilan tanishishga mo’ljallangan. Asosiy e’tibor ma’lumotlar bazasi bilan bog’lanishni o’rnatish, so’rovlar jo’natish funksiyalari va javoblarni (MySQL connect, MySQL query, MySQL result, MySQL num rows, MySQL close) qayta ishlashga qaratiladi. Misol sifatida virtual tarix muzeyi ma’muriyati uchun Web-interfeys tuzish masalasini ko’raylik. PHP distributivida MySQL ma’lumotlar bazasi bilan ishlash uchun mo’ljallangan funksiyalar mavjud. Bunda bu funksiyalarning MySQL dagi ba’zi bir ma’lumotlar bazasini tasvirlash va to’ldirish maqsadida Web-interfeyslarni tuzish imkonini beruvchi funksiyalar bilan tanishamiz. Ma’lumotlar bazasiga ma’lumotlarni qo’shish uchun Web-interfeys bilan ishlashda bu ma’lumotlarni shunchaki html-formaga kiritish va ularni serverga jo’natish kerak bo’ladi.

Namoyish etishda bu interfeysni virtual muzey eksponatlari haqidagi ma’lumotlar saqlanadigan Artifacts jadvallari uchun tuzamiz. Artifacts kollektsiyasidagi har bir eksponat quyidagi xarakteristika yordamida tasvirlanishini eslatib o’tamiz: nom (title); muallif (author); ifoda (description); o’rindosh nom (alternative); tasvir (photo).

Nomlanish va o’rindosh nomlanish uzunasiga 255 belgidan kam satr (ya’ni VARCHAR(255)), tasvirlash - matnli maydon (TEXT turiga mansub) hisoblanadi, “muallif” va “tasvir” maydonlarida esa Persons kollektsiyasidan muallifning identifikatorlari va Images kollektsiyasidan eksponat tasvirlariga muvofiq mavjud bo’ladi.

**Ma’lumotlar bazasi interfeysi**

Ma’lumotlar bazasidagi mavjud jadval strukturasini (ya’ni uning maydonlari jamlanmasini) html-formada tasvirlash uchun quyidagi tarkibiy topshiriqlarni rejalashtirish mumkin:

-MB bilan ulanishni o’rnatish;

-MB ishini tanlash;

-Jadval maydonlari ro’yxatini olish;

-html-formada maydonlarni tasvirlash. Bundan keyin formaga kiritilgan ma’lumotlarni ma’lumotlar bazasiga kiritish mumkin.

**Ma’lumotlar bazasi bilan bog’lanish (MySQL dasturi misolida)**

**Aloqa o’rnatish**

Ma’lumotlar bazasi bilan aloqa o’rnatish uchun **MySQL_connect** funksiyasidan foydalaniladi. MySQL connect sintaksisi

mysq_connect resursi (“server qatori”, “username”, “password”)

Bu funksiya MySQL serveri bilan aloqa o’rnatadi va bu aloqaga ko’rsatkich qaytaradi yoki muvaffaqiyatsiz chiqqanda FALSE ko’rsatadi. Odatda quyidagi parametrlar qiymati e’lon qilinadi: **server** = 'localhost:3306'

**username** = server jarayoni egasidan foydalanuvchi

ismi **password** = bo’sh parol

Server bilan ulanish, agar u bungacha MySQL close() yordamida yopilmagan bo’lsa, skriptni amalga oshirish tugallanishida baza bilan aloqa yopiladi. **Misol**: <? $conn = MySQL connect("localhost", "nina","123") or die("Ulanishni amalga oshirib bo’lmaydi: ". MySQL error()); echo "Ulanish amalga oshdi"; MySQL close($conn); ?>

MySQL_connect amali **shell>MySQL -u nina -**

**p123** buyrug’i bilan teng kuchli.

**Ma’lumotlar bazasi ustida amallar**

**Ma’lumotlar bazalarini tanlash**

MySQL da ma’lumotlar bazasini tanlash use buyrug’i yordamida amalga oshiriladi:

MySQL>use book;

PHP da buning uchun MySQL select db funksiyasi mavjud.

MySQL_select_db: sintaksisi _

***mantiqiy MySQL select db (database name qatori);***

Bu funksiya TRUE qiymatni ma’lumotlar bazasini muvaffaqiyatli tanlanganda qaytaradi va FALSE ni esa - aksincha bo’lganda. **Misol**: Book ma’lumotlar bazasini tanlash <?

$conn = MySQL connect("localhost","user","123") or die("Ulanishni amalga oshirib

bo’lmaydi: ". MySQL error());

echo "Ulanish amalga oshdi";

**MySQL select db**("book");

?> _ _

**Jadval maydonlari ro’yxatini olish**

PHP da ma’lumotlar bazasi bilan bog’lanilgandan so’ng, undagi jadvallar ro’yxatini olish mumkin. Bu funksiya - MySQL list fields.

MySQL_list_fields sintaksisi _ _

***MySQL list fields (database name qatori, table name qatori)***

MySQL_field name funksiyasi so’rov amalga _ oshirilishi natijasida olingan maydon nomini qaytaradi. MySQL field len funksiyasi maydon uzunligini qaytaradi. MySQL field type funksiyasi maydon tipini qaytaradi, MySQL field flags funksiyasi esa probel bilan yozilgan maydon bayroqlari ro’yxatini qaytaradi. Maydon tiplari int, real, string, blob va h. bulishi mumkin. Bayroqlar not null, primary key, unique key, blob, auto_increment va h. bo’lishi mumkin. Bu barcha buyruqlar sintaksisi bir xil:

**MySQL_field_name** (result qatori, butun field offset) resursi; **MySQL_field_type** (result qatori, butun field offset) resursi; **MySQL_field_flags** (result qatori, butun field _ offset) resursi; **MySQL_field_len** ( result qatori, butun field offset)

Bu erda result - bu so’rov natijasi identifikatori (masalan, MySQL list fields yoki MySQL query funksiyalar bilan jo’natilgan so’rov), field offset esa - natijadagi maydonning tartib raqami. MySQL_num_rows(result resursi) buyrug’i result ning ko’pgina natijalari qatorlari miqdorini qaytaradi.

**Misol**: Artifacts (eksponatlar kollektsiyasi) jadvali maydonlari ro’yxatini olish.

<?

$conn = MySQL connect("localhost","user","123") or die("Aloqa o’rnatib bo’lmaydi: ". MySQL error()); _ echo "Aloqa o’rnatildi"; MySQL select db("book");

```
$list f _ = MySQL list fields
("book","Artifacts",$conn);
$n = _ MySQLnumfields($listf);
for($i=0;$i<$n; $i++){ _
$type = MySQL field type($list f, $i);
$namef = my _ ql field name($listf,$i);
$len = MySQL field len($list f, $i); _
$flags str = mysq _ field flags ($list f,
$i); echo "<br>Maydon nomi: ".
$namef _ echo "<br>Maydon turi: ".
$type; _ echo "<br>Maydon uzunligi: ".
$len;
echo "<br>Maydon bayroqlari qatori: " . $flags str .
"<hr>"; } ?>
```

Natija sifatida taxminan quyidagilarni olish mumkin (albatta, jadvalda ikkita maydon bo’lganda):

- Maydon nomi: id
- Maydon turi: int
- Maydon uzunligi: 11
- Maydon bayroqlari qatori:
- not null primary key auto increment
- Maydon nomi: title
- Maydon turi: string
- Maydon uzunligi: 255
- Maydon bayroqlari qatori:

**html-formada maydonlar ro’yxatining aks etishi**

Maydon haqidagi ma’lumotni html-forma elementida aks ettiramiz. BLOB turidagi elementlarni textarea ga o’tkazamiz (TEXT turida biz tuzgan description maydoni BLOB tipiga ega), raqamlar va qatorlarni <input type=text> matnli qatorlarida aks ettiramiz, avtoinkrement belgisiga ega elementni esa umuman aks ettirmaymiz,

chunki uning ma’nosi o’z-o’zidan o’rnatiladi. Buning uchun explode funksiyasidan foydalaniladi: explode: sintaksisi

***explode massivi (separator qatori, string qatori , int limit)***

Bu funksiya string qatorini separator taqsimlagichi yordamida qismlarga bo’ladi va olingan qatorlar massivini qaytaradi. Bizning holatda taqsimlagich sifatida probel “ ” ni olish kera, bo’lish uchun boshlang’ich qator sifatida esa - maydon bayroqlari qatorini. **Misol**. Artifacts jadvaliga ma’lumot kiritish uchun forma (index.php)

```
<?php
$dblocation = "localhost";
$dbname = "book";
$dbuser = "root";
$dbpasswd = ""; $dbcnx = @MySQL
connect($dblocation,$dbuser,$dbpasswd); @MySQL
select db _ ($dbname,$dbcnx); if(isset($ _ POST['save
hide'])) { $title=($ _ POST['title']);
$query = _ "INSERT INTO Artifacts (title) VALUES
('$title')"; if(@MySQL query($query))
{
echo "<HTML><HEAD><META HTTP-EQUIV='Refresh'
        CONTENT='0;
URL=index.php'></HEAD></HTML>";
} else { print MySQL error(); error("Ma’lumotni bazaga ezishda
xatolik");} } else { ?>
<TABLE width="100%" align=center border=0><TR><TD> <form
method="POST" name="save" action="" enctype="multipart/form-
data" > <input type=hidden name=save hide value=save hide>
<TABLE width="100%" align= _ center border=0><TR>
<TD>Eksponat nomini kiriting </TD>
<TD><INPUT class="input" size=“35” name=“title”
value=""></TD> </TR></TABLE>
```

<input type="submit" value="Saqlash" class="batton" /> </form></TD></TR></TABLE>
<? } ?>

Mijoz kompyuterlari




## 2.2. Maktabgacha ta’lim muassasalarda online muloqat veb saytini ma’lumotlar bazasini loyihalash

Ma’lumki, ma’lumotlarni jadvalga yozish uchun SQL tilidagi INSERT buyrug’i ishlatiladi:

MySQL> INSERT INTO Artifacts SET title='Eksponat nomi';

PHP skriptda bunday buyruqdan foydalanish uchun MySQL query() funksiyasi mavjud.

mysql_query sintaksisi *MySQL query resursi (query qatori)*

MySQL_query() SQL-so’rovni MySQL ma’lumotlar bazasining ma’lumotlar bazasiga jo’natadi. Agar ochiq aloqa bo’lmasa, funksiya parametrsiz MySQL connect() funksiyasiga o’xshash holda MBBT bilan bog’lanishga urinadi. So’rov natijasi buferlanadi. Qo‘yilgan masalalar murakkabligining oshishi, shaxsiy

kompyuterlar va lokal xisoblash tarmoqlarining paydo bo‘lishi yangi «fayl-server» arxitekturani paydo bo‘lbishiga zamin yaratdi. Tarmoq orqali murojat qilish mumkin bo‘lgan ma’lumotlar bazasining ushbu arxitekturasida tarmoqdagi bitta kompyuter server sifatida ajratilgan va unda ma’lumotlar bazasining fayllari joylashtirilgan. Foydalanuvchilarning so‘roviga mos xolda fayllar fayl-serverdan foydalanuvchilarning ishchi stansiyalariga uzatilgan va u yerda ma’lumotlarni qayta ishlash bilan bog‘liq asosiy ishlar bajarilgan. Bunda markaziy server ma’lumotlarni qayta ishlashda qatnashmasdan faqat fayllarni saqlovchi vazifasini bajargan.

Quyidagi rasmda  tizim malumotlar bazasi jadvallari tasvirlangan va bu yerda ular o’zaro bo’g’langanini ko’rib turibmiz. Bunday jadvallarni yaratish va o’zaro bog’lashlardan maqsad tizimda malumotlarni takrorlanishini oldini olish va ma’lumotlar bazasidagi malumotlar xajmini oshib ketishini oldini olishdir.




Ma’lumotlar bazasi o‘ta tez rivojlangan hamda MySQL va mSQL o‘zini ko‘rsatgan soha, Internet uchun dasturlar yaratishdir. Internet uchun murakkab va ishonchli dasturlarga ehtiyoj oshgan sari ma’lumotlar bazasiga ehtiyoj ham oshib bormoqda. Server ma’lumotlar bazasi Internetda ko‘p funktsiyalarni qo‘llashi mumkin. Har qanday veb- sahifa ma’lumotlar bazasi tomonidan boshqarilishi

mumkin.

Hozirgi kunda zamonaviy axborot-kammunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotganini hisobga olsak ma'lumotlar bazasi ximoyasi eng dolzarb masala hisoblanadi.

## 2.3 Maktabgacha ta'lim muassasalariga murojatlarni online qabul qilish tizimini yaratish

Maktabgacha ta'lim tizimiga webbogcha sayti orqali online muloqat tizimi yaratildi bu saytga kirganda Bosh sahifa teskkari aloqa va yordam minyusi mavjud. Sahifaning chap tomonida viloyatlar vroýhati keltirilgan .




Viloyatlardan birini tanlaganda shu viloyatda mavjud tumanlar ro'yhati chiqaradi va tumanlarda mavjud MTM lar soni chiqadi



Xorazm viloyati

| Tuman(shaxar) nomi | MTM soni | MTM o`quvchilar soni |
|---|---|---|
| Bogot tumani | 7 | 1 |
| Gurlan tumani | 5 | 0 |
| Qo`shko`pir tumani | 6 | 0 |
| Shovot tumani | 4 | 0 |
| Urganch shaxri | 6 | 1 |
| Urganch tumani | 5 | 0 |
| Xozarasp tumani | 5 | 0 |
| Xiva tumani | 3 | 0 |
| Xonka tumani | 5 | 0 |
| Yangiariq tumani | 3 | 0 |
| Yangibozor tumani | 1 | 0 |
| Jami | 0 | 2 |



**Tumanlardan birini tanlaganda shu tumandagi MTM lar  ro’yhati chiqadi**



| № | Bog`cha nomeri | Mudira | O`quvchilar soni | Manzili | Indeks | Telefon | Batafsil |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 1 - son MTM | Qurbonboeva Maqsuda | 28 | bogot tumani | | | |
| 2 | 2 - son MTM | bekjonova zubayda | 100 | xayrat qishlogi | | +998912569858 | |
| 3 | 3 - son MTM | Norimova Sanamjon | 80 | qaraqamish qishlogi | | +998912569854 | |
| 4 | 4 - son MTM | Sabirova malik Rayemboyevna | 77 | kirov qishlogi | | +998912569564 | |
| 5 | 5 - son MTM | Madminova Dilnoza | 84 | yangiyop qishlogi | | +998937445878 | |
| 6 | 6 - son MTM | Vazirova Roxatoy | 87 | paxtakor | | +998902569489 | |
| 7 | 4 - son MTM | Alibekova Shoxnoza | 100 | kirov qishlogi | | +998935698745 | |



MTM lardan birini tanlab tugmasi bosiladi



Bu yerda MTM haqidagi ma’lumotlar, online so’rovnama, va so’rovnoma natijalari chiqadi. Bundan tashqari sahifaning saytning chap tomonida murojatlar qismi mavjud bu orqali muassasa bilan ota onalarni onlayn muloqati amalga oshiriladi.





Bu sahifa orqali online so’rovnoma bo’lib ya’ni yangi o’quvchini qabul qilamiz.



Bu sahifada yangi o’quvchini ro’yhatdan o’tgandan so’ng quydagi sahifa orqali uning ma’lumotlari jamlangan bo’ladi. Bu yerda Qabul qilinganlar qo’yhati, Rad etilganlar ro’yhati, Ko’rib chiqilmaganlar ro’yhati.




**Bu yerda so'rovlarning natijasi beriladi**




**Xabarlar bilan savol javoblarni ko'rib chiqiladi.Keyin esa berilgan savollarga javob beriladi**

**Xamma savol javoblar bazada saqlanadi.**




**Bu yerda savolga javob berilgandagi ma’lumotlar taqdim etiladi agar ko’rib chiqilmagan bo’lsaunda ko’rib chiqilmagan xabarlar bo’limida turadi Qaror qabul qiling bo’limida turadi.**

## III BOB. MEHNAT MUHOFAZASI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI

### 3.1 Kompyuter sinflariga qo'yilgan ergonomik talablar.

Ish holatini yaxshilashda operatorning ish o`rni asosiy ahamiyat kasb etadi. Ishchi stol qattiq holda bo`lishi kerak, chunki kerakli paytda ekranni, klaviaturani, dokumentlarni siljitish imkonini bersin. Ishchi stoli va o`tirgichlar bir-biriga mutanosib bo`lishi kerak. O`tirgichni poldan balandligi 42-55 sm bo`ladi. Ishchi o'rindiq ish davomiyligiga qarab tanlanadi: o`zok vakt davomida ishlansa og`ir, kattakon kreslo, qisqa vaqt davomida engil o'rindiqdan foydalansa bo`ladi, chunki ularni joyidan oson siljitiladi. O'rindiqning tag qismi 5 ta tayanchdan iborat bo`lishi zarur. O`tirgichlar qulay bo`lishi kerak, uning o`lchami 40x40 sm.kv. dan oshmasligi zarur.




1.5-rasm. Operator ish o`rniga qo`yilgan talab.

Ish joyini rejalashda stolda joylashgan displey va klaviatura turishiga ko`ra qo`l holatini ham nazarda tutish kerak.

Operator ish o`rnida displey joylashtirilayotganda ko`z va boshning harakati

aniqlanadigan ko`rish maydoni ham ko`zda tutiladi. Operator o`z ish joyini shunday ta'minlashi kerakki, bunda ekran o`rtada, yozilayotgan dokument esa chap yonda yoki maxsus joylashtirgichlarda turishi kerak. Klaviatura nisbatan tekis turadi, o`rta qatordagi klavishalar balandligi
2.5 - 5.0 sm . Klaviaturaning o`rta qismidan stol qirg`og`igacha bo`lgan masofa 16 sm. EXMlar ish davomida o`zidan turli rentgen nurlarini chiqaradi. SHuni hisobga olib, ishlash davomiyligini qisqartirish kerak, shuningdek, maxsus himoya ekranlaridan foydalanish kerak.

Ishlab chiqarish binolarini normadagi metereologik va sanitariya-gigiena sharoitlari bilan ta'minlashda, ish jarayonida zararli va zaxarli maxsulot-moddalarning miqdorini chegaralangan darajada bo`lishida, mehnat sharoitlarini yanada sog`lomlashtirishda, mehnat unumdorligini va mehnat xavfsizligini oshirishda shamollashtirish katta ahamiyatga ega. Binodagi havo almashinishi ma'lum miqdorda bo`lishi uchun devor, deraza, yopma va fonarlardagi darchalar ko`proq yoki kamrok ochilib, shamol yo`nalishiga qarab moslamalar yordamida boshqariladi.

Qish vaqtida binodagi va tashqi havo haroratidagi farq katta bo`lganligi uchun, binodagi havoni almashtirish kamroq talab qilinadi. SHuning uchun ham havo beruvchi darchalarning yuzasi kamaytirilib, ular pol yuzasidan 5-6 metr balandlikda o`rnatiladi. Yoz faslida esa havo oqimi 1,5-2 metr balandlikda uyushtirilsa etarli. Binolarda, xonalarda shamollatish qurilmalari ish boshlanishidan 10-15 minut avval ishga tushirilib, ish tamom bo`lganidan 10-15 minut keyin to`xtatiladi.

Sanitariya-gigiena talablariga mos keluvchi yana bir holat xonaning yoritilganlik darajasidir. To`g`ri va rejali yoritilgan xonalarda ish unumdorligi oshadi, toliqish kamayadi va korxonaning xavfsizligi ta'minlanadi. Yahshi yoritilmagan xonalarda ishlayotgan operator yoki ishchi atrofda joylashtirilgan narsa va buyumlarni yaxshi ko`rmaydi, ishlab chiqarish sharoitiga moslasha olmaydi. Natijada ishchi mehnat faoliyatida ko`zning zo`riqishi vujudga keladi. Xaddan tashqari yoritilganlik ham ko`zga yomon ta'sir ko`rsatadi.

## 3.2 Kompyuter bilan ishlashda texnika xavfsizligi.

Ma’lumki kundalik hayotimizni shaxsiy kompyutersiz tasavvur qilish qiyin. Shaxsiy kompyuterlar xozirgi kunda hayotimizni barcha tarmoqlariga kirib kelgan va muvaffaqiyatli qo’llanilmoqda. Ammo har bir qurilmadan foydalanishda xavfsizlik talablariga rioya qilish bu hayot talabi. Shaxsiy kompyuterlardan foydalanishda ham xavfsizlik qoidalariga rioya qilish bu kishi organizmini turli xavfli omillardan  zarar topishi yoki jaroxatlanishini oldini oladi.

Eng avvalo kompyuterlardan foydalanishda ular uchun sanitariya va gigiena talablariga mos holda bino tanlash va ularni yong`in xavfsizligi vositalari, birinchi tibbiy yordam qutichalari bilan jihozlash maqsadga muvofiqdir.

Kompyuterlarni belgilangan masofada joylashtirish, ularda hosil bo’ladigan elektrostatik va elektromagnit maydonlarini foydalanuvchilarga ta’sir xavfini kamaytiradi, binolarga komyuterlarni joylashtirishda gigiena talablariga asosan har bir foydalanuvchi shaxs uchun eng qulay ish xududini ta’minlanish talabi hisobga olinishi shart, ya’ni bir kishi uchun ish joyining xajmi elektron nurlanishli monitorli kompyuterlar uchun 20 metr qub va suyuq kristal manitorli kompyuterlar uchun 15-20  metr qubdan kam bo’lmasligi kerak.




1.1- rasm. Shaxsiy kompyuterlarni joylashish tartibi

Kompyuterlarni shunday joylashtirish kerakki, bunda kompyuter manitori yuzasida tabiiy yoki sun’iy yorug’lik aks ta’siri bo’lmasligi lozim,  aks holda bu holat kishi ko’zini tez toliqishiga va ko’rish qobilyatini pasayishiga olib keladi.

Sun’iy yoritgichlar kompyuter monitorini yuza qismiga nisbatan chap  yoki orqa qismida o’rnatilishi va kompyuter monitorining balandligi ko’zning gorizontal ko’rish qismidan balandda o’rnatilgan bo’lishi kerak.




1.2- rasm. Shaxsiy kompyuterda ishlashda ish o`rnini to`g`ri yoritish

Kompyuter stolida o’rnatilgan yoritgichning yoruglik miqdori 300-500 lk va kompyuter monitorining ekranini yorug`lik miqdori 300 lk dan va yoritilgan quvvati 35 kd/metr kv dan yuqori bo’lmasligi lozim. Ish joylaridagi yorug`likning miqdorini amalda qo’llaniladigan yu-116 luksametrlar orqali o`lchash mumkin.

Kompyuterlarni o’rnatishdan oldin barcha elektr o’tkazgichlar holatini tekshiring va ulardan ochiq joy bo’lishiga yo’l qo’ymang va eleketr tokidan jarohatlanishni oldini olish maqsadida keltirilgan sxema asosida yerga ulang.




1.3- rasm.  Shaxsiy kompyuterni elektr tarmog`ida qo`shishda yerga ulash sxemasi.

Kompyuter monitorini va protsessorini havo almashuvchanlik tizimiga havoning erkin almashishi, issiqlik manbasidan uzoq masofada tutish, kompyuter ish

samaradorligini va ishonchliligini oshiradi. Tizim va elektr tarmog`i o’tkazgichlarini o’zaro ulashda ularni o’ralib qolishiga yo’l qo’ymasligi lozim.

Ishlab chiqarishda samaradorlikni oshirishning asosiy omillaridan biri, bu xonalarda mikroiqlim sharoitni qulayligi, ya’ni ish joyidagi xavoning harorati nisbiy namligi va shomolning harakat tezligining GOST 12.001.005.-86 talablariga mos kelishi. GOST 12.001.005.-86 ga asosan kompyuterlar o’rnatilgan xonada havoning harorati 21...25 gradus, nisbiy namlik miqdori 40-60 foiz va shamolning harakat tezligi 0,1 metr/sekund oshmasligi va tushmasligi lozim.

O’zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy himoya hamda Sog`likni saqlash vazirliklari tamonidan belgilangan talablar asosida, kompyuterladan professional foydalanuvchilar ishga kirishdan oldin va davriy ravishda meditsina ko’riklaridan o’tishlari shart.

Homilador va emizakli farzandi bor ayollar uchun kompyuterda ishlash zararli.




1.4- rasm. Ish o`rni jihozlari ko`rsatgichlari

Ish o’rnini to’gri tashkil qilish, kishilarni turli kasbiy kasallanishlarga yo’liqishini oldini olishda asosiy omil bo’lib hisoblanadi. Gigienik talablarga asosan kompyuterdan foydalanuvchilarning monitor va ko’z orasidagi masofa, klaviyaturaning to’gri joylashishi, ish stolining kengligi, oyoq ostidagi zinachaning

meyorida bo’lishi hamda aylanma va vertikal holati o’zgaradigan o’tirgich ishga ancha qulaylik yaratadi.

Shunday qilib, ishlab chiqarishda xavfsiz va zararsiz mexnat sharoitini yaratish har bir raxbar va mas’ul xodimning vazifasi bo’lib, bunda nafaqat kishilarga sog`lom ish muhiti yaratiladi, balki ishlab chiqarishda samaradorlikni oshishiga olib keladi.

## Xulosa.

Davlatimiz raxbarining “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”asarida takidlaganikdek:”Ko’p yillik ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki,inson o’z umri davomida olinadigan barcha informatsiyalarning 70 foizini 6 yoshgacha bo’lgan davrda olar ekan”.Shu nuqtai nazardan farzand tarbiyasida maktabgacha ta’lim muassasalari muxim axamiyat kasb etadi.

Menga berilgan bitiruv malakaviy ishi” Maktabgacha ta’lim muassasalariga murojatlarni online qabul qilish tizimini yaratish”vazifasi topshirilgan.

Demak,men maktabgacha ta’lim muassasalariga murojatlarni onlayn qabul qilish tizmini men www.vebbogcha.uzedu.uz saytini ko’rib chiqib u veb saxifaga o’xshagan ammo onlayn murojan tizmini aloxida xizmat ko’rsatish qilib qo’ydim.Bu veb saxifam orqali butun respublikamiz xududidagi barcha maktabgacha ta’lim muassasalar xaqida ma’lumot olish imkoniyatlari mavjud.

Meni veb saytimda onlayn muloqat tizimida maktabgacha ta’lim muassasalari bilan to’g’ridan to’g’ri muloqat qilish imkoniyati mavjud.

Bu sahifada siz muassasa haqida,qanday xujjatlar kerak bo’ladi bolaning qabul qilinishiga xullas barcha savollarizga javob olishinggiz mumkun.

Bu saytda siz barcha maktabgacha ta’lim muassasalardagi vakantlar yani jami olinadigan bolalar soniga qarab shu muassasaga topshirishinggizni bilib olishinggiz mumkun. Onlayn sahifasida xar qanday muloqatlar nazorat ostida bo’ladi.

Xulosa qilib shuni aytishim kerakki bu tizim maktabgacha ta’lim muassasalari ish faoliyatini avtomatlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Энди Шафран «Создание Web страниц» Самоучитель , Питер, Москва 2000
2. F. Е. Ёрматов. Хаёт фаолияти хавфсизлиги. Маърузалар матни. Тошкент. ТошДТУ 2003.
3. Кузнецов М. В.«PHP 5 на примерах» БХВ-Петербург, 2005. — 577 с
4.Максим Кузнецов, Игорь Симдянов, Сергеу Голшев. PHP 5. Практика создания Web-саутов (+ CD-ROM). Серия: Pro. Профессиональное программирование.,Издательство: БХВ-Петербург, 2005 г., 948 стр.
5. O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni // Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. -20-29 b.
6.С. С. Ғуломов ва бошқ. «Ахборот тизимлари ва технологиялари». Тошкент, «Ўзбекистон», 2000 й.
7.Карпова Т. С. Базы данных: модели, разработка, реализация. - СПб: Питер, 2001.
8.Астахова И. Ф., Толстобров А. П. , Мельников В. М. SQL в примерах и задачах:
Учеб. пособие.- Мн.: Новое знание,2002.
9.«Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot – kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish chora – tadbirlari to’g’risida», O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori. 6 iyun 2002 yil, 200-son.
Intenet web sahifalar:
www.webbogcha.uzedu.uz